

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi
«O'zbekiston rangli metall parchalari,
chiqindilarini tayyorlash va qayta ishlash
zavodi» aksiyadorlik jamiyati
aksiyadorlarining navbatday tashqari
umumiylig'i ilish tomonidan
“30” iyun 2021 yildagi 2-sonli Bayonnomma
asosida

“RO'YXATGAOLINGAN”



“TASDIQLANGAN”

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi “O'zbekiston rangli
metall parchalari, chiqindilarini tayyorlash va qayta ishlash
zavodi” aksiyadorlik jamiyati**

USTAVI
(yangi tahrirda)

2021 yil

Ushbu ustav O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni yangi taxrirda kabul kilinganligi munosabati bilan o'zgartirilgan.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi "O'zbekiston rangli metall parchalari, chiqindilarini tayyorlash va qayta ishslash zavodi" aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon - Jamiat) 2014 yili 28 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan № 1031-sod reestr raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi "Toshkent rangli metal parchalari va rezgi-chiqitlarini tayyorlash va qayta ishslash zavodi" aksiyadorlik jamiyatining huquqiy vorisi hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi "Toshkent rangli metal parchalari va rezgi-chiqitlarini tayyorlash va qayta ishslash zavodi" aksiyadorlik jamiyat nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.10.2017 yildagi № 849 qaroriga asosan Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi "O'zbekiston rangli metall parchalari, chiqindilarini tayyorlash va qayta ishslash zavodi" aksiyadorlik jamiyati nomiga o'zgartirilgan.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu ustav O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi (yangi tahrir) qonuni (matn davomida – Qonun), va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.2. Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi (06.05.2014y. O'RQ-370-sod) va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi (03.06.2016y. O'RQ-387) Qonunlari, O'zbekiston Respublika Prezidentining 18.10.2017 yildagi PQ-849-soni "Rangli metall parchalari va chiqindilarini to'plash, topshirish xamda qayta ishslash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-849-soni qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq olib boradi.

1.3. Jamiyatning rasmiy firma nomi:

To'liq:

O'zbek tilida (lotin yozuvida):	Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi "O'zbekiston rangli metall parchalari, chiqindilarini tayyorlash va qayta ishslash zavodi" aksiyadorlik jamiyati
O'zbek tilida (kirill yozuvida):	Хорижий инвестициялар иштирокидаги «Ўзбекистон рангли металл парчалари, чиқиндилиарини тайёрлаш ва қайта ишлану заводи» акциядорлик жамияти
Rus tilida:	Акционерное общество с участием иностранных инвестиций «Узбекский завод по заготовке и переработке лома, отходов цветных металлов»
Ingliz tilida:	Joint-stock company with foreign investments "Uzbek factory by storage and processing of scrap, waste of non-ferrous metals"
Qisqartirilgan:	
O'zbek tilida (lotin yozuvida):	XII "O'zikkilamchiranglimetall" AJ
O'zbek tilida (kirill yozuvida):	ХИИ «Ўзиккиламчиранглиметалл» АЖ
Rus tilida:	АО ИИ «Узвторцветмет»
Ingliz tilida:	JSC FI "Uzikkilamchiranglimetall"

1.4. Jamiyat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan muddatga tashkil etilgan.

1.5. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan yuridik shaxs hisoblanadi, o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga, shu jumladan o'zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy-

nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

1.6. Jamiyat o'zining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq firma nomiga va qisqartirilgan firma nomiga ega bo'ladi. Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko'rsatilgan yumaloq muhrga ega bo'lishi lozim. Muhrda bir vaqtning o'zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin. O'z nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

1.7. Jamiyat u bilan aloqa amalga oshiriladigan pochta manziliga va elektron pochta manziliga ega bo'lishi lozim. Jamiyat o'zining pochta manzili va elektron pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarni yozma bildirish yuborish yo'li bilan, aksiyadorlarni esa ommaviy axborot vositalarida e'lon berish yo'li bilan xabardor etishi shart.

1.8. Aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar va uning faoliyati bilan bog'liq ziyonlarni o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida to'laydilar.

1.9. Aksiyalar haqining hammasini to'lamagan aksiyadorlar Jamiyat majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

1.10. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar hisoblanmaydi.

1.11. Jamiyatning mol-mulki unga mulk huquqi asosida tegishli bo'lib, Jamiyat aksiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar, asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, ko'char va ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, olingan daromad, qonun hujjatlari bilan ta'qilanganboshqa asoslarda olingan boshqa mol-mulkardan tashkil topadi.

1.12. Jamiyat qonun hujjatlari ko'zda tutilgan aksiyadorlik Jamiyat yoki ma'suliysi cheklangan Jamiyat shakldagi sho'ba va tobe xo'jalik Jamiyatlarni tashkil etishga haqlidir.

1.13. Jamiyat o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida filiallar tashkil etishi hamda ularga qonun hujjatlari va Jamiyat Ustavida belgilangan doirada va tartibda vakolatlar berishi mumkin.

1.14. Jamiyat O'zbekiston Respublikasidan tashqarida filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi hamda ularga qonun hujjatlari va Jamiyat Ustavida belgilangan doirada va tartibda vakolatlar berishi mumkin. Jamiyat filial va vakolatxonalarini mol-mulk bilan ta'minlaydi.

1.15. Jamiyatning filiallari va vakolatxonalari yuridik shaxs hisoblanmaydi va Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizomlar asosida ish ko'radi.

1.16. Jamiyat o'zining ushbu Ustavda kursatilgan manzilidan tashqari O'zbekiston Respublikasi hududida asosiy Jamiyat faoliyatini amalga oshirmaydigan ma'muriy idoralarini tashkil etishga haqli.

1.17. Jamiyat korxonalar, tashkilotlar va boshqa tijorat tuzilmalarini tashkil etishda va ularning xo'jalik faoliyatida, o'z mablag'lari bilan, shu jumladan ulush qo'shish asosida qatnashish huquqiga ega.

1.18. Jamiyat o'z faoliyatini muvofiqlashtirish, o'z manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish hamda birqalikdagi dasturlarni amalga oshirish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) va o'zga birlashmalarda qatnashishi mumkin.

1.19. Jamiyatning:

- joylashgan yeri (pochta manzili): Janubiy Sanoat zonası, Yangixayot tumani, Toshkent shahri, 100155, O'zbekiston Respublikasi;

- rasmiy korporativ veb-sayti: www.uzvtorcetmet.uz;

- elektron pochta manzili: info@uzvtorcetmet.uz.

II. JAMIYATNING FAOLIYAT SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI) VA MAQSADLARI

2.1. Jamiatni tashkil etishdan asosiy maqsad Jamiatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan aksiyadorlar manfaatlari uchun foyda olishdir.

2.2. Jamiatning asosiy faoliyati: rangli metall parchalari va rezgi-chiqitlari, ikkilamchi moddiy resurslarni tayyorlash, qayta ishlash va sotish; ikkilamchi va import xom ashyosidan foydalangan holda mahsulot va tovarlar ishlab chiqarishdan iborat. Shuningdek ishlab chiqarish, marketing, vositachilik, montaj-qurilish, ishga tushirish-sozlash, investitsiya, ilmiy, loyihibiy, joriy etish, servis, tovar xarid qilish faoliyati, ulgurji va chakana savdo, aholi va korxonalariga transport xizmatlarini ko'rsatish.

2.2.1. Jamiat qonunda ta'qilanganmagan boshqa turdag'i faoliyat bilan shug'ullanishga haqli. Jamiat belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat olib boradi.

2.2.2. Tadbirkorlik faoliyatini olib borish maqsadida Jamiat quyidagilarga haqli:

- xo'jalik, moliyaviy va tijorat faoliyatini mustaqil ravishda rejashtirish;

- Qonunda belgilangan talablarni inobatga olgan holda o'z mahsulotlari, tovarlari va xizmatlarining narxi va tariflarini mustaqil ravishda belgilash;

- belgilangan tartibda o'z mablag'larni O'zbekiston Respublikasi va undan tashqarida joylashgan korxona va tashkilotlarga sarmoya kiritish, ustav kapitallarni sotib olish, bino, bino-inshoot, yer, tabiiy boyliklaridan foydalanish huquqlarini, qimmatli qog'ozlar, va qonunga asosan mulk huquqi ob'ekti bo'la oladigan boshqa mulklar;

- belgilangan tartibda litsenziyalar olish;

- har xil turdag'i qimmatli qog'ozlar chiqarish;

- chet el va mahalliy mutaxasislarni jalb qilish;

- mustaqil ravishda ish haqi turini, tizimini, miqdorini belgilash;

- belgilangan tartibda vakolatxona ochish.

2.3. Maxsus ruxsatnomasi (litsenziya) talab qilinadigan faoliyat turlari tegishli ruxsatnomasi (litsenziya) olingandan so'ng amalga oshiriladi.

Jamiat yuqorida ko'rsatilgan faoliyat turlaridan tashqari o'ziga qarashli bo'linmalar, Jamiatlar ishini yaxshilash hamda ularni qo'llab-quvvatlash uchun qonunchilikka zid kelmaydigan boshqa ishlarni ham bajarishi mumkin.

III. JAMIYAT USTAV FONDING MIQDORI, UNI KO'PAYTIRISH YOKI KAMAYTIRISH TARTIBI

3.1. Jamiatning ustav fondi aksiyadorlar sotib olgan Jamiat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi. Jamiatning Ustav fondi 19 217 571 810 (o'n to'qqiz milliard ikki yuz o'n yetti million besh yuz yetmish bir ming sakkiz yuz o'n) so'mga teng.

3.2. Jami 7 295 965 (etti million ikki yuz to'qson besh ming to'qqiz yuz oltmish besh) dona aksiya joylashtirilgan:

Jamiatning barcha aksiyalari oddiy xisoblanadi.

Bitta aksiyaning nominal qiymati – 2 634 (ikki ming olti yuz o'ttiz to'rt) so'm.

3.3. Aksiyalarning joylashganligi va taqsimoti to'g'risidagi ma'lumot aksiyadorlar reestrda ko'rsatiladi va aksiyalar egalari haqidagi ma'lumot ushbu reestr bo'yicha o'zgarishi mumkin.

3.4. Jamiat amaldagi qonun hujjalari muvofiq aksiyadorlar reestrini shakllantirish shartnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Markaziy Depozitariysiga topshiradi.

3.5. Jamiatning ustav kapitalida xorijiy investorlarning ulushi 15 foizdan kam bo'limgan miqdorni tashkil etadi, qonun hujjalarida belgilangan hollar bundan mustasno.

a) Jamiatning ustav fondini ko'paytirish

3.6. Jamiatning ustav fondi qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

3.7. Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan Jamiyat ustav fondini ko'paytirish va tegishli o'zgartirishlarni Jamiyat Ustaviga kiritish to'g'risidagi qaror Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

3.8. Qo'shimcha aksiyalar Jamiyat tomonidan ushbu Ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtiriladi.

3.9. Jamiyat ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lган e'lon qilingan aksiyalari miqdori - nominal qiymati 2 634 (ikki ming olti yuz o'ttiz to'rt) so'm bo'lган 7 295 965 (etti million ikki yuz to'qson besh ming to'qqiz yuz oltmish besh) dona oddiy aksiyalardan iborat.

3.10. Ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning umumiyligi qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish (aksiyalarning birja va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.

3.12. Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq va yopiq obuna usullari bilan joylashtiriladi.

3.13. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar o'ziga tegishli shu turdagiligi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda ularni imtiyozli olish huquqiga ega.

3.13. Imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risidagi qaror, shuningdek bunday qarorning amal qilish muddati haqidagi qaror aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi mumkin. Bunday qarorning amal qilish muddati ushbu qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran bir yildan ortiq bo'lishi mumkin emas.

3.14. Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi jamiyat aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

3.15. Qo'shimcha chiqarilgan aksiyalar bozor qiymatida, lekin nominal qiymatidan kam bo'lмаган qiymatda joylashtiriladi.

3.16. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan, aksiyadorlar o'rtaida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

3.17. Jamiyatning ustav kapitali ko'paytirilayotganda jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

3.18. Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga jamiyat ustav kapitalidagi davlat ulushini shakkantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror jamiyat aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishi tomonidan jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining kamida uchdan ikki qismi egalari bo'lgan aksiyadorlarning (davlatdan tashqari) roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

b) Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish

3.19. Jamiyatning ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini yoki ularning umumiyligi sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini Jamiyatning o'zi keyinchalik muomaladan chiqarish sharti bilan sotib olishi yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

3.20. Jamiyatning ustav fondini aksiyalarning bir qismini sotib olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga yo'l qo'yiladi.

3.21. Agar ustav fondini kamaytirish natijasida uning miqdori ustavga kiritilgan tegishli o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazish kuni belgilanadigan ustav fondining eng kam miqdoridan qonun hujjatlarida belgilangan miqdoridan kamayib ketadigan bo'lsa, Jamiyat ustav fondini kamaytirishga haqli emas.

3.22. Ustav fondini kamaytirish va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

3.23. Ustav fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav fondini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

IV. JAMIYAT AKSIYALARI TURLARI, NOMINAL QIYMATI VA JAMIYATNING BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLARI

4.1. Jamiyatning aksiyalari oddiy bo'lib, hujjatsiz shaklda hisobi yuritiladi. Aksiyalarga egalik huquqi depo-hisob varag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoki jismoniy shaxs aksiyaning egasi - Jamiyat aksiyadori deb e'tirof etiladi.

Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, Jamiyat tugatilgan taqdirda esa, o'zlariga tegishli ulushga muvofiq Jamiyat mol-mulkining bir qismini olish huquqiga ega.

4.2. Aksiyaning egasi bo'lgan aksiyadorga ovozga qo'yilgan masalani hal etishda ovoz berish huquqini beradigan oddiy aksiya Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyasidir.

4.3. Jamiyatning oddiy aksiyalarini imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayrboshlashga yo'l qo'yilmaydi.

4.4. Jamiyat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga haqli.

Jamiyat mol-mulk bilan ta'minlangan korporativ obligatsiyalarni ularni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish sanasidagi o'z kapitali miqdori doirasida chiqarishga haqli.

Jamiyatning korporativ obligatsiyalari Jamiyat aksiyalariga ayrboshlanadigan qimmatli qog'ozlar bo'lishi mumkin.

Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish, shu jumladan aksiyalarga ayrboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish Jamiyat Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Jamiyat tomonidan aksiyalarga ayrboshlanadigan korporativ obligatsiyalar chiqarilgan taqdirda, mazkur qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi kerak.

Aksiyalarga ayrboshlanadigan qimmatli qog'ozlar Jamiyat tomonidan joylashtirilgan taqdirda e'lon qilingan aksiyalarning soni ushbu qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lishi muddati mobaynida ayrboshlash uchun zarur miqdordan kam bo'lmasligi lozim.

Jamiyat o'zi joylashtirgan qimmatli qog'ozlar ayrboshlanishi mumkin bo'lgan aksiyalar beradigan huquqlarni cheklash haqida ushbu qimmatli qog'ozlar egalarining roziligidan qaror qabul qilishga haqli emas.

V. JAMIYAT AKSIYALARINI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA SHARTLARI.

5.1. Jamiyat qo'shimcha aksiyalarni ochiq yoki yopiq obuna usullarida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish to'g'risidagi qarorida chiqarilayotgan qo'shimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi,

nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli (ochiq yoki yopiq obuna), muddati, narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish usuli va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar to'lovi uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartib belgilanadi.

5.2. Jamiyat qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish to'g'risidagi qarorda chiqarilayotgan aksiyalarni joylashtirish tartibini, ya'ni aksiyalar joylashtirilishining borishida fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzilishining tartibi va shartlari, joylashtirish amalga oshiriladigan (birja yoki birjadan tashqari) bozorlarni belgilaydi.

5.3. Jamiyat tomonidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

5.4. Qo'shimcha aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquq ko'zda tutilgan taqdirda, Jamiyat qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish to'g'risidagi qarorda joylashtirilayotgan aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqlarga ega bo'lган aksiyadorlar uchun Jamiyatning qo'shimcha aksiyalarini joylashtirish bahosi belgilanadi.

5.5. Jamiyatning aksiyalariga haq to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pul va to'loving boshqa vositalari, mol-mulk shuningdek pulda baholanadigan huquqlar (shu jumladan ashyoviy huquqlar) vositasida amalga oshiriladi.

5.6. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayrboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lган aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Aksiyador, shu jumladan Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirot etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayrboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni o'ziga tegishli shu turdag'i aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga (bundan buyon matnda imtiyozli huquq deb yuritiladi) ega.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lган shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi Jamiyat aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi. Imtiyozli huquq amalga oshirilgan taqdirda, aksiyadorlar aksiyalarning va aksiyalarga ayrboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning faqat butun miqdorini olishi mumkin.

5.7. Aksiyalarni imtiyozli sotib olish huquqini qo'llamaslik to'g'risidagi qaror aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining qarorida belgilangan muddat davomida, ammo bunday qaror qabul qilingan paytda e'tiboran ko'pi bilan bir yil davomida amal qiladi.

5.8. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati bildirish e'lon qilingan paytdan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Imtiyozli huquqqa ega bo'lган aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayrboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni olishi to'g'risida o'zining ismi-sharifi (nomi) va yashash joyi (joylashgan yeri), o'zi oladigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni Jamiyatga yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqli. Bunday ariza mazkur imtiyozli huquqning amal qilish muddati ichida Jamiyatga taqdim etilishi kerak.

VI. JAMIYAT AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Jamiyat aksiyadorlari:

- Jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish;
- depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;
- Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- Jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirot etish;
- Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;

- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;

- o'ziga yetkazilgan zararning o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

- o'zlarining xamkorlikdagi pozitsiyasini shakllantirish maqsadida aksiyadorlar, shu jumladan minoritar aksiyadorlar o'zaro aksiyadorlik bitimlarni tuzishga xaqli;

- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega.

Aksiyadorlar qonun hujjatlari va ushbu Ustavga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6.2. Aksiyadorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va ko'zda tutilgan hollarda o'zlariga tegishli aksiyalarning hammasi yoki bir qismi Jamiat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilishga haqli.

6.3. Jamiatning 1 foizdan kam bo'limgan oddiy aksiyalari egalariga kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a'zoligiga ularning nomzodini (umumi yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

6.4. Har bir oddiy aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdag'i aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo'lgan hajmdagi huquqlarni beradi.

6.5. Aksiyadorning aksiyadorlar umumi yig'ilishida ishtirot etishi, dividendlar olishi va Jamiat tomonidan korporativ harakatlar bajarilganda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirishi Jamiat aksiyadorlarining reestri asosida amalga oshiriladi.

6.6. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadollarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

Aksiyalarni boshqa shaxsga berishga doir cheklov belgilanishi aksiyadorni - mazkur aksiyalar egasini qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiatni boshqarishda ishtirot etish va ular bo'yicha dividendlar olish huquqidан mahrum qilmaydi.

6.7. Jamiat aksiyadorlari quyidagi majburiyatlarga ega:

- Jamiatning aksiyalariga qonun hujjatlarida, ushbu Ustavda va aksiya chiqarilishi to'g'risidagi qarorlarda ko'zda tutilgan tartibda, usullarda va muddatlarda haq to'lash;

- Jamiat faoliyati to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik;

- Jamiat aksiyalarining 50 va undan ortiq foizi egasiga aylangan shaxs, agar u bungacha mazkur jamiat aksiyalariga egalik qilmagan yoki aksiyalarining 50 foizidan kamrog'iga egalik qilgan bo'lsa, qolgan aksiyalar egalariga aksiyalarni bozor qiymati bo'yicha o'ziga sotishlari borasidagi taklifini o'ttiz kun ichida e'lon qilishi shart. Aksiyadorning o'ziga tegishli aksiyalarni sotishi to'g'risidagi yozma roziliqi e'lon qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida olingan taqdirda, jamiatning 50 va undan ortiq foiz aksiyalari egasi mazkur aksiyalarni sotib olishi shart.

Minoritar aksiyador hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan jamiat boshqaruv organi faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi lozim.

Aksiyadorlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6.8. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularni oluvchiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

VII. JAMIYAT DAROMADI (FOYDA NI, DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH VA ZARARNI QOPLASH TARTIBI

7.1. Dividend Jamiat sofi foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.

7.2. Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

7.3. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

7.4. Dividend Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

7.5. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.

7.6. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

7.7. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

7.8. Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

7.9. Dividendlar Jamiyatning Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

7.10. Dividendlar to'lash muddati va tartibi Jamiyat Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi qarori bilan belgilanadi. Dividendlar to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 kundan kech bo'lmasligi lozim.

7.11. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

7.12. Jamiyat quyidagi hollarda dividendlarni to'lash haqida qaror qabul qilishga, hamda dividendlar to'lashga haqli emas:

- Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;

- agar dividendlar to'lanadigan paytda Jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Jamiyatda shunday belgililar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;

- agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi (ustav kapitali) va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa, aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas.

7.13. Jamiyat dividendlar miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi.

7.14. Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi qaroriga ko'ra Jamiyat ixtiyorida qoladi.

7.15. Jamiyat tomonidan o'tgan moliyaviy yil uchun belgilangan biznes reja parametrlarining sof foya ko'rsatkichi bajarilgan taqdirda, jamiyatning homiylik va boshqa qaytarilmaydigan yordamlar uchun xarajatlari o'tgan yil sof foydasining 10 foizidan ortib ketmasligi shart.

VIII. JAMIYATNING ZAXIRA FONDINI VA BOSHQA FONDLARINI TASHKIL ETISH TARTIBI

8.1. Jamiyat sof foyda hisobidan zaxira fondini hamda Aksiyadorlarning umumiylig'ishida aniqlanadigan, Jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa jamg'armalarni tashkil etadi.

8.2. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmanган taqdirda, Jamiyatning zaxira fondi Jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

8.3. Jamiyat ustav fondining 15 foizdan kam bo'lmanган miqdorda Jamiyat zaxira fondi tuziladi.

8.4. Jamiyat zaxira fondiga ushbu ustavning 8.3-bandida belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan 5% kam bo'lmanган miqdorida ajratmalar o'tkazadi.

8.5. Jamiyatning zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.

8.6. Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, majburiy ajratmalardan tiklanadi.

8.7. Jamiyat sof aktivlarining qiymati buxgalteriya hisob-kitob ma'lumotlari bo'yicha belgilangan tartibda baholanadi.

IX. JAMIYATNI BOSHQARUVINING TUZILMASI

9.1. Jamiyatni boshqarish organlari quyidagilardan iborat:

- Aksiyadorlarning umumiylig'ishi;
- Kuzatuv Kengashi;
- Ijroiya organi (yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi - Bosh direktordir).

X. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIYLIG'ISHI

10.1. Aksiyadorlarning umumiylig'ishi Jamiyatning yuqori boshqaruvi organidir.

Aksiyadorlarning umumiylig'ishini Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmanган taqdirda esa, Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri olib boradi.

10.2. Jamiyat aksiyadorlarining yillik umumiylig'ishi har yili moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay, iyun oyi oxirgi haftasida o'tkaziladi.

Aksiyadorlarning umumiylig'ishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiylig'ishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

Aksiyadorlarning yillik umumiylig'ishidan tashqari o'tkaziladigan umumiylig'ishlari navbatdan tashqari yig'ishlardir.

10.3. Aksiyadorlarning yillik umumiylig'ishida quyidagi masalalar ko'rildi:

- kuzatuv kengashini saylash;
- taftish komissiyasini saylash;
- Jamiyatning ijroiya organi rahbari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish;
- Jamiyatning yillik hisoboti va biznes-rejasi ijrosi bo'yicha hisobot;
- Kuzatuv kengashi va Ijroiya organining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari;
- foyda va zararlarini taqsimlash;
- jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosalarini eshitish.

Yig'ishda boshqa masalalar ham ko'rib chiqilishi mumkin.

10.4. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin oltmis bir kundan kechiktirmay, aksiyadorlarning navbatdagi umumi yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqlidir.

10.5. Aksiyadorlarning umumi yig'ilishi o'tkaziladigan sana va uni o'tkazish tartibi, yig'ilishi o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumi yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallar (axborotning) ro'yxati Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

10.6. Aksiyadorlar umumi yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

- Jamiyatni qayta tashkil etish;

- Jamiyatni tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

- Jamiyat Kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

- Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish;

- Jamiyatning ustav fondini kamaytirish;

- o'z aksiyalarini olish;

- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- Jamiyat taftish komissiyasi a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

- Jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;

- Jamiyat Kuzatuv kengashining va Taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining xulosalarini eshitish;

- Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga mukofot va kompensatsiya miqdorini belgilash;

- Jamiyat taftish komissiyasi a'zolariga mukofot va kompensatsiya miqdorini belgilash;

- Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayrboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida «Aksiyadorlik Jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;

- Qonunga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- aksiyadorlar umumi yig'ilish reglamentini tasdiqlash;

- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

- Jamiyatning Bosh direktoriga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarini, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

- qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda Jamiyatning affillangan shaxsi bilan tuziladigan bitimlar bo'yicha qaror qabul qilish;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnomaga tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni aniqlash;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qonun hujjatlariga, ushbu Ustav va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan «Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida»gi nizomga muvofiq boshqa masalalarni hal etishi mumkin.

10.7. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning Bosh direktoriga hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning Kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, quyidagi masalalar bundan mustasno:

- jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;

- Qonunga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- Jamiat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayriboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning ijroiya organini saylash (tayinlash), vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- Jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash.

10.8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Davlat vakilining Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi shaxsan uning o'zi tomonidan amalga oshiriladi.

10.9. Aksiyador Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtida almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

10.10. Aksiyadorning vakili Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ovoz berishga doir ishonchnomada vakolat bergen va vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan yeri, pasportiga oid ma'lumotlar) bo'lisi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lisi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsnинг muhri bilan tasdiqlangan holda beriladi.

10.11. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;

umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;

umumiy yig'ilishning raisi (rayosat) va kotibi, yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatilishi lozim.

10.12. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Jamiat korporativ veb-saytida va Korporativ axborot yagona portalida joylashtirilda. Agar Jamiat aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari fond

birjasining kotirovka varag'iga kiritilgan bo'lsa, mazkur qarorlar birjaning veb-saytida ham joylashdiriladi.

10.13. Aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar ovoz berishda birgalikdagi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzishi mumkin.

10.14. Jamiatning minoritar aksiyadorlari hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan Jamiat boshqaruvi organi faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi lozim.

10.15. Jamiat Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi Jamiatning «Aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi to'g'risida»gi Nizom asosida chaqiriladi va o'tkaziladi.

XI. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

11.1. Jamiatning Kuzatuv kengashi Jamiat faoliyatiga umumiyligi rahbarlikni amalga oshiradi, Qonunning va Jamiat ustavi bilan aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

11.2. Jamiat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- jamiatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilibotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiat faoliyatining ustuvor yo'naliшlarini belgilash;

- Jamiat aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishlarini chaqirish, amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

- Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

- Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

- Jamiat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash masalalarini Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

- jamiatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash, shuningdek, ko'rsatilgan to'lov larning chegarasi miqdorini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.07.2015 yildagi 207 – sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida”gi qarori bilan belgilangan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlariga bog'lagan holda belgilash;

- korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

- jamiatning yillik biznes-rejasini joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ko'rib chiqish va ma'qullah;

- Jamiatning ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

- Jamiat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish (Jamiat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin.);

- Jamiatning taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;

- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- Jamiatning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;

- Jamiatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

- Jamiatning sho''ba va tobe korxonalarini tashkil etish;

- qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda affillangan shaxslar ishtirokida bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish.

11.2.1. Xamda quyidagilar Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan:

- jamiyatning ustav fondini ko'paytirish masalalarini, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayrboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning Bosh direktoriga (ijroiya organiga) to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorini belgilash;

- qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qarorni va emissiya risolasini tasdiqlash;

- avval ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish va o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish matnini tasdiqlash;

- qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qarorga va emissiya risolaga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish.

- Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolat doirasiga qonun hujjatlariga, ushbu Ustavga va Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan «Kuzatuv kengashi to'g'risida»gi nizomga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.

11.3. Jamiyat Kuzatuv kengashi o'z ishini amaldagi qonunchilik, ushbu ustav va aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan «Kuzatuv kengashi to'g'risida»gi Nizom asosida amalga oshiradi.

11.4. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyat Ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

11.5. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan bir yillik muddatga tayinlanadilar (saylanadilar). Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni 5 kishidan iborat. Davlat vakili lavozimiga ko'ra Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zosi bo'ladi, u Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan saylanmaydi (qayta saylanmaydi).

Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

ustav kapitali (fondi)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik kuzatuv kengashlari a'zoligiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni ko'rsatish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri yoki uning tegishli o'rinnbosarlari va maslahatchilari bilan kelishgan holda amalga oshiriladi

11.6. Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslarning qayta saylanishlari cheklanmaydi.

11.7. Jamiyat Bosh direktori Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylanishlari, tayinlanishlari mumkin emas.

11.8. Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari bo'lishi mumkin emas. Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan boshqa talablar aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishida tasdiqlangan «Jamiyat Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomi»da belgilab qo'yiladi.

11.9. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiylar soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi o'z raisini Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiylar soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnomalar yuritilishini tashkil etadi. Aksiyadorlarning umumiylar yig'ilishida raislik qiladi.

11.10. Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lган hollarda uning vazifasini Kuzatuv kengash a'zolaridan biri bajarib turadi.

11.11. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Jamiyat Kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi, Jamiyat ovoz beruvchilarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador), Bosh Direktoring talabiga ko'ra chaqiriladi.

Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi jamiyat Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish to'g'risidagi talab olingan sanadan e'tiboran uch kun ichida mazkur talabni ko'rib chiqishi va jamiyat Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish haqida yoki, konunchilikda belgilangan xolatlarda, uni o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi shart.

Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, bunday majlis uni o'tkazish to'g'risidagi talabnomalar olingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay o'tkazilishi shart.

Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Zaruriyatga ko'ra Jamiyat Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlislari ham o'tkazilishi mumkin.

11.12. Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarning kamida yetmish besh foizi ishtirok etganida qonuniy hisoblanadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo'lган taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiylar yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari Aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiylar yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek Jamiyat Bosh Direktoring vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lганlarning ko'pchilik ovozi bilan qilinadi.

Quyidagi masalalar bo'yicha qaror Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi:

- Jamiyat ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish;
- Jamiyat tomonidan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish;
- Jamiyat tomonidan yirik bitimlar tuzish;
- Jamiyat tomonidan affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish.

Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishga haqli emas. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozları teng bo'lган hollarda, Jamiyat Kuzatuv kengashi Raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan davlat vakilining ishtirokisiz qabul qilingan qarorlar, shuningdek veto qo'yilgan qarorlar ijro etilmaydi.

11.13. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida bayonnomalar yuritiladi va u majlis o'tkazilganidan so'ng 10 kundan kechiktirmay tuziladi.

Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- majlisda hozir bo'lган shaxslar;
- majlisning kun tartibi;
- ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;
- qabul qilingan qarorlar.

Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlisning bayonnomasi to'g'ri rasmiy lashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

11.14. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning umumiylig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyatning ijroiya organiga Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

11.15. Kuzatuv kengashi mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiylig'ilishi tomonidan tasdiqlangan «Kuzatuv kengashi to'g'risida»gi nizom asosida ish olib boradi.

XII. JAMIYATNING BOSH DIREKTORI

12.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati Jamiyat Bosh direktori tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyatning Bosh direktori aksiyadorlar umumiylig'ilishida saylanadi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Aksiyadorlarning vakili sifatida xarakat qilayotgan ijro organi a'zolari ijro organi a'zolarini saylash masalalari 60'yina ovoz berishga xakli emas.

Jamiyat Bosh direktori qonun hujjatlari, ushbu Ustav va Aksiyadorlarning umumiylig'ilishi tomonidan tasdiqlangan «Ijroiya organi (Bosh direktor) to'g'risida»gi nizom asosida ish yuritadi.

12.2. Jamiyat Bosh direktorining vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Aksiyadorlarning umumiylig'ilishi vakolatlariga yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Jamiyat Bosh direktori Aksiyadorlarning umumiylig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

12.3. Jamiyat Bosh direktori vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Ustav va Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;
- Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligidagi ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish;
- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxona va tashkilotlarda uning manfaatlarini himoya qilish;
- banklarda hisob raqamlar, shu jumladan valyuta hisob raqamlarini ochish va Jamiyatning bank va boshqa moliya hujjatlarida birinchi imzo vakolatiga ega bo'lish;
- Jamiyat mijozlari va boshqa korxona va tashkilotlar bilan shartnomalar va kontraktlarni imzolash va bitimlar tuzish;
- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol-mulki va pul mablag'larini tasarruf etish;
- shtatlarni belgilash, xodimlarning shtat ro'yxatini tasdiqlash, Jamiyat xodimlarini ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash;
- Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlash;
- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalar, filiallar to'g'risidagi nizomlari, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;
- Jamiyat tizimiga kiruvchi tarmoq korxonalarining faoliyatini nazorat qilish;
- Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;

- Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;
- Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi yoki Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;
- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarining o'zaro samarali harakatini ta'minlash;
- Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash;
- Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chiqilishiga rahbarlik qilish;
- Jamiyatning faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishini ta'minlash;
- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, zarur holati va ishonchligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;
- Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni Jamiyatning Kuzatuv kengashi, Taftish komissiyasi yoki Jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etish;
- davlat statistika hisoboti va buxgalteriya xisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;
- xizmat yoki tijorat sirini tashkil etuvchi axborotning Jamiyat xodimlari tomonidan saqlanishini ta'minlash;
- Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlash, Jamiyat xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan eng yaxshi foydalanish choralarini ko'rish;
- Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ularning mehnati muhofaza qilinishini ta'minlash;
- Jamiyat aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishi qatnashish, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish;
- Jamiyat aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishi va Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiramagan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qonuni va Ustav jamiyatida belgilangan tartibda Kuzatuv kengashi yig'ilishini o'tkazish to'g'risida talab qilish;
- qonun hujjatlari, ushbu Ustav va «Ijroiya organi (Bosh direktor) to'g'risida»gi nizomga muvofiq Bosh Direktor vakolatiga kiruvchi boshqa masalalarni hal etish.

12.4. Jamiyat Bosh direktori har chorakda Jamiyat Kuzatuv kengashi oldida Jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan hisobot beradi.

Jamiyat Bosh direktori Aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig'ilishi moliya yili yakunlariga ko'ra Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida hisobot beradi.

Jamiyatning Bosh direktorini tayinlash to'g'risidagi qaror, xorijiy menejerlar ham ishtiroy etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinadi.

12.5. Jamiyat Bosh direktorining huquq va majburiyatlarini tegishinchaligida qonun hujjatlarida, Jamiyat Ustavida, Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan «Ijroiya organi (Bosh direktor) to'g'risida»gi nizomda hamda u Jamiyat bilan bir yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi. Shartnomaga Jamiyat nomidan Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. Jamiyatning Bosh direktori bilan tuziladigan shartnomada uning Jamiyat faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlarini hamda Jamiyatning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyiligi nazarda tutilishi kerak.

12.6. Bosh direktor quyidagilarga haqli:

- o'z vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi;
- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, boshqa tashkilotlar va organlar bilan o'zaro munosabatlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;

- Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligidagi ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi;
 - Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligidagi ko'ra boshqa tashkilotlarning boshqaruv organlarida lavozimga ega bo'lishi mumkin;
 - haq olish;
 - Bosh direktor boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.
- 12.7. Bosh direktor majburiyatlar:
- Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutish;
 - o'z majburiyatlarini u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq tegishli tarzda bajarish;
 - Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini nazorat qilish;
 - Jamiyatning yillik biznes-rejasi ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minlash;
 - Jamiyat Kuzatuv kengashi va Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi oldida hisobot berish;
 - aksiyadorlarning amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan axborotlarni olish, Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishlarida ishtirok etish, dividendlar hisoblash va to'lash bo'yicha barcha huquqlariga rioya etilishini nazorat qilish;
 - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyat faoliyati to'g'risidagi axborotni tegishli tarzda oshkor etilishini nazorat qilish;
 - Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni Jamiyatning Kuzatuv kengashi, Taftish komissiyasi yoki Jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etilishini ta'minlash;
 - Jamiyat tarkibiy tuzilmalarining samarali hamkorlik yuritishini ta'minlash;
 - Jamiyat shartnomasi majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash;
 - Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchligi, tegishli organlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar o'z vaqtida taqdim etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;
 - davlat statistika hisoboti va buxgalteriya hisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;
 - Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotning saqlanishini ta'minlash;
 - Jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslik;
 - Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlash, Jamiyat xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan eng yaxshi foydalanish choralarini ko'rish;
 - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat munosabatlari bilan bog'liq masalalarning hal etilishini ta'minlash;
 - Jamiyat faoliyatida qonun hujjatlari, ushbu Ustav, «Ijroiya organi (Bosh direktor) to'g'risida»gi Nizom va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari talablariga rioya qilish.
 - Bosh direktor qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.
- 12.8. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan tayinlanadigan Jamiyat Bosh direktorining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini aksiyadorlarning navbatdagi umumiyligi yig'ilishigacha bo'lган davrda vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi.

XIII. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING, JAMIYAT BOSH DIREKTORINING JAVOBGARLIGI

13.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari, Jamiyatning Bosh Direktori o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

Agar bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

13.2. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergen Jamiat Kuzatuv kengashi a'zolari, Jamiatning Bosh Direktori javobgar bo'lmaydi.

13.3. Jamiat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiatga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan Jamiat Kuzatuv kengashi a'zosi, Jamiatning Bosh Direktori ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

XIV. JAMIyatNING MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

a) Taftish komissiyasi

14.1. Jamiatning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun Jamiat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga taftish komissiyasi saylanadi. Jamiat taftish komissiyasi 3 kishidan iborat. Ayni bir shaxs ayni bir Jamiatning taftish komissiyasi tarkibiga (taftishchilikka) ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

14.2. Jamiat taftish komissiyasining vakolatlari amaldagi qonunchilik va mazkur ustav bilan belgilanadi.

14.3. Jamiat taftish komissiyasi faoliyatining tartibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan «Jamiyat taftish komissiyasi to'g'risida»gi Nizomda belgilab qo'yiladi.

14.4. Jamiatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish taftish komissiyasining, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Jamiat Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko'ra yoki Jamiat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra Jamiat Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

14.5. Jamiat taftish komissiyasining yozma talabiga ko'ra Jamiat Bosh direktori Jamiatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taftish komissiyasiga taqdim etishi shart.

14.6. Jamiatning taftish komissiyasi amaldagi qonunchilikka muvofiq aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilishga haqli.

14.7. Jamiat taftishchisi yoki taftish komissiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida Jamiat Kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishi, shuningdek ayni shu Jamiatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlashi mumkin emas.

14.8. Jamiat Kuzatuv kengashining a'zolariga yoki boshqaruv organlaridagi mansabdor shaxslarga qarashli aksiyalar Jamiat taftish komissiyasi a'zolarini saylash chog'ida ovoz berishda ishtirok etishi mumkin emas.

b) Ichki audit xizmati

14.9. Jamiat aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko'p bo'lgan taqdirda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati Jamiatning Kuzatuv kengashiga hisobdordir.

Jamiat kuzatuv kengashining a'zolaridan tarkib topgan audit qo'mitasini tashkil etishi shart. Jamiatning ichki audit xizmati, agar bunday xizmat mavjud bo'lsa, o'z faoliyatida audit qo'mitasiga hisobdordir.

Qo'mitalarni shakllantirish va ularning ishlash tartibi, soni va tarkibi jamiatning kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

14.10. Jamiatning ichki audit xizmati Jamiatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, Jamiat ustaviga va boshqa hujjatlarga riosa etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks etirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga riosa etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga riosa etilishini

tekshirish xamda ustav kapitalini 50 foizi mikdoridagi ulush jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslarning xo'jalik muomalalarini ichki nazoratini amalga oshiradi va bu borada monitoring olib borish orqali Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalarini qiladi hamda baholaydi.

14.11. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini, agar qonunda o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

v) Auditorlik tashkiloti (tashqi auditor)

14.12. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.

14.13. Auditorlik tashkiloti Jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun Jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

g) Jamiyatning korporativ maslahatchisi

14.14. Jamiyat Kuzatuv kengashi korporativ maslahatchisi lavozimini joriy etish to'g'risida qaror qilishi mumkin. Korporativ maslahatchisi Jamiyat Kuzatuv kengashiga hisobdordir va korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi.

14.15. Jamiyat korporativ maslahatchisining faoliyati Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi.

XV. JAMIYATNING YILLIK HISOBOTLARNI TUZISH, TEKSHIRISH VA TASDIQLASH TARTIBI

15.1. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobot taqdim etishi shart.

15.2. Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek Jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik Jamiyat Jamiyatning Bosh direktori zimmasida bo'ladi.

15.3. Jamiyatning moliyaviy hisobotida ko'rsatilgan va aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishiga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag'idagi ma'lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari Jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan bog'liq bo'limgan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

15.4. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning Yillik umumiyligini yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan o'ttiz kundan kechiktirmay Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

15.5. Jamiyatning moliya yili 1 yanvardan boshlanadi va 31 dekabrda tugaydi.

XVI. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

a) Jamiyatni qayta tashkil etish tartibi

16.1. Jamiyatni qayta tashkil etish (Jumladan: qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish va qayta tuzish) aksiyadorlar umumiyligini yig'ilishining qarori asosida, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

16.2. Qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran Jamiyat 30 kundan kechiktirmay o'z kreditorlarini bu haqda yozma ravishda xabardor etadi. Kreditor Jamiyatdan majburiyatlarni to'xtatish yoki muddatidan ilgari bajarishni hamda zararning o'rmini qoplashni quyidagi muddatlarda yozma ravishda xabardor etish orqali talab qilishga haqli:

- qo'shib yuborish, qo'shib olish yoki o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish haqidagi yozma bildirish Jamiyat tomonidan kreditorga yuborilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay;

- bo'lish yoki ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish haqidagi yozma bildirish Jamiyat tomonidan kreditorga yuborilgan sanadan e'tiboran oltmis kundan kechiktirmay.

Agar taqsimlash balansi qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning huquqiy vorisini aniqlash imkonini bermasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan Jamiyatning o'z kreditorlari oldidagi majburiyatlari yuzasidan solidar javobgar bo'ladi.

16.3. Yangi yuridik shaxsning unga o'z faoliyatini tugatgan ikki yoki bir nechta Jamiyatning barcha huquqlari va majburiyatlarini o'tkazish yo'li bilan vujudga kelishi aksiyadorlik Jamiyatlarining yoxud aksiyadorlik Jamiyati va mas'uliyati cheklangan Jamiyatning qo'shib yuborilishi deb e'tirof etiladi. Aksiyadorlik Jamiyatini yuridik shaxslar bilan boshqa tashkiliy-huquqiy shaklda qo'shib yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

Qo'shib yuborishda ishtirok etayotgan Jamiyat qo'shib yuborish haqida shartnomalar tuzadi, unda qo'shib yuborish tartibi va shartlari, shuningdek har bir Jamiyat aksiyalarini (ulushlarini) yangi yuridik shaxsning aksiyalariga va (yoki) ulushlariga ayirboshlash tartibi belgilab qo'yiladi. Har bir yuridik shaxsning Kuzatuv kengashi yoki vakolatli organi qo'shib yuborish shaklida qayta tashkil etish to'g'risidagi, qo'shib yuborish shartnomasini tasdiqlash haqidagi va topshirish dalolatnomasini tasdiqlash to'g'risidagi masalalarni qo'shib yuborishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning (ishtirokchilarining) umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi.

Yangidan vujudga kelayotgan yuridik shaxsning ustavini tasdiqlash va Kuzatuv kengashini saylash qo'shib yuborishda ishtirok etayotgan Jamiyatlar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) qo'shma umumiyligida amalga oshiriladi. Jamiyatlar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) qo'shma umumiyligida ovoz berish tartibi yuridik shaxslarni qo'shib yuborish to'g'risidagi shartnomada belgilab qo'yiladi.

Yuridik shaxslar qo'shib yuborilgan taqdirda ularning har biriga tegishli barcha huquq va majburiyatlar topshirish dalolatnomasiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi.

16.4. Bir yoki bir nechta yuridik shaxs faoliyatini tugatib, ularning huquq va majburiyatlarini boshqa yuridik shaxsga o'tkazish Jamiyatni qo'shib olish deb e'tirof etiladi.

Qo'shib olinayotgan Jamiyat va qo'shib olayotgan yuridik shaxs qo'shib olish to'g'risida shartnomaga tuzadi, unda qo'shib olish tartibi va shartlari, shuningdek qo'shib olinayotgan Jamiyatning aksiyalarini (ulushlarini) qo'shib olayotgan Jamiyatning aksiyalari va (yoki) ulushiga ayirboshlash tartibi belgilab qo'yiladi. Har bir yuridik shaxsnинг Kuzatuv kengashi yoxud vakolatli organi qo'shib olish shaklida qayta tashkil etish to'g'risidagi va qo'shib olish shartnomasini tasdiqlash haqidagi masalani qo'shib olishda ishtirok etayotgan o'z Jamiyatni aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi. Qo'shib olinayotgan Jamiyatning Kuzatuv kengashi yoxud vakolatli organi topshirish dalolatnomasini tasdiqlash to'g'risidagi masalani ham Jamiyatlar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi.

Mazkur yuridik shaxslar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) qo'shma umumiy yig'ilishi yuridik shaxsning ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi. Yuridik shaxslar aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) qo'shma umumiy yig'ilishida ovoz berish tartibi qo'shib olish to'g'risidagi shartnomada belgilanadi.

Bir yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo'shib olinayotganda qo'shib olinayotgan yuridik shaxsning barcha huquq va majburiyatlari topshirish dalolatnomasiga muvofiq qo'shib olayotgan yuridik shaxsga o'tadi.

16.5. Jamiyat faoliyatini uning huquq va majburiyatlarini tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga o'tkazgan holda tugatish Jamiyatni bo'lish deb e'tirof etiladi.

Bo'lish shaklida qayta tashkil etilayotgan Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyatni bo'lish shaklida qayta tashkil etish, bu qayta tashkil etishning tartibi va shartlari, yangi yuridik shaxslarni

tashkil etish hamda qayta tashkil etilayotgan Jamiyatning aksiyalarini tashkil etilayotgan yuridik shaxslarning aksiyalariga va (yoki) ulushiga ayirboshlash tartibi haqidagi masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi.

Bo'lish shaklida qayta tashkil etilayotgan Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi Jamiyatni bo'lish shaklida qayta tashkil etish, bu qayta tashkil etishning tartibi va shartlari, yangi yuridik shaxslarni tashkil etish hamda qayta tashkil etilayotgan Jamiyatning aksiyalarini tashkil etilayotgan yuridik shaxslarning aksiyalariga va (yoki) ulushiga ayirboshlash tartibi haqida qaror qabul qiladi. Yangidan tashkil etilayotgan har bir yuridik shaxs aksiyadorlarining (ishtirokchilarining) umumiy yig'ilishi uning ustavini tasdiqlash va Kuzatuv kengashini saylash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Jamiyat bo'linganda uning barcha huquq va majburiyatlarini taqsimlash balansiga muvofiq tashkil etilayotgan ikki yoki bir nechta yuridik shaxsga o'tadi.

16.6. Qayta tashkil etilayotgan Jamiyatning faoliyatini tugatmagan holda, uning huquq va majburiyatlarining bir qismini o'tkazgan holda bir yoki bir nechta yuridik shaxsni tashkil etish Jamiyatni ajratib chiqarish deb e'tirof etiladi.

Ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilayotgan Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyatni ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish, ajratib chiqarish tartibi va shartlari, yangi yuridik shaxsni tashkil etish, Jamiyatning aksiyalarini ajralib chiqayotgan yuridik shaxsning aksiyalariga va (yoki) ulushiga ayirboshlash imkoniyatlari hamda bunday ayirboshlash tartibi, taqsimlash balansini tasdiqlash to'g'risidagi masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi.

Ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilayotgan Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi Jamiyatni ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish, ajratib chiqarish tartibi va shartlari, yangi yuridik shaxsni tashkil etish, Jamiyatning aksiyalarini ajralib chiqayotgan yuridik shaxsning aksiyalariga va (yoki) ulushiga ayirboshlash imkoniyatlari hamda bunday ayirboshlash tartibi, taqsimlash balansini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Jamiyat tarkibidan bir yoki bir nechta yuridik shaxs ajralib chiqqanda ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilgan Jamiyat huquq va majburiyatlarining bir qismi taqsimlash balansiga muvofiq ularning har biriga o'tadi.

16.7. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilgan holda yuridik shaxsning boshqa tashkiliy-huquqiy shakli etib o'zgartirilishga haqli.

O'zgartirilayotgan Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyatni o'zgartirish, o'zgartirish tartibi va shartlari haqidagi masalalarni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi.

O'zgartirilayotgan Jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi Jamiyatni o'zgartirish, o'zgartirish tartibi va shartlari haqida qaror qabul qiladi. Jamiyatni o'zgartirish natijasida tashkil etilayotgan yuridik shaxsning ishtirokchilari Jamiyatning chiqib ketayotgan aksiyadorlari bilan hisob-kitoblar amalga oshirilganidan keyin ta'sis hujjatlarini tasdiqlaydi hamda qonun hujjatlariga muvofiq yuridik shaxsning boshqaruv organlarini saylaydi (tayinlaydi).

Jamiyat o'zgartirilganida uning barcha huquq va majburiyatlarini saqlanib qoladi.

b) Jamiyatni tugatish tartibi

16.8. Jamiyatni tugatish uning huquq va majburiyatlarini huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tmagan holda Jamiyat faoliyatining to'xtatilishiga olib keladi.

16.9. Jamiyat quyidagi hollarda tugatiladi:

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq;
- qonun hujjatlariga muvofiq sud qaroriga asosan;
- qonun hujjatlariga belgilangan boshqa hollarda.

16.10. Jamiyat ixtiyoriy ravishda tugatilgan taqdirda, tugatilayotgan Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyatni tugatish va tugatish komissiyasini (bundan buyon matnda «Tugatuvchi» deb yuritiladi) tayinlash to'g'risidagi masalani Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi. Tugatish komissiyasining tarkibiga davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli

organning vakili kiritiladi Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi Jamiyatni tugatish va tugatuvchini tayinlash haqida qaror qabul qiladi.

16.11. Jamiyat sudning qaroriga ko'ra tugatilayotganda tugatuvchini tayinlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

16.12. Tugatuvchi tayinlangan paytdan e'tiboran Jamiyat ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar unga o'tadi. Tugatuvchi tugatilayotgan Jamiyat nomidan sudda ishtirok etadi.

16.13. Tugatuvchi:

- Jamiyatning tugatilishi haqida, shuningdek uning kreditorlari tomonidan talablarni bayon etish tartibi va muddatlari to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi. Kreditorlar tomonidan talablar taqdim etish uchun muddat Jamiyatning tugatilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran ikki oydan kam bo'lmasligi lozim;

- kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzlarini olish chora-tadbirlarini ko'radi, shuningdek kreditorlarni Jamiyatning tugatilishi to'g'risida yozma shaklda xabardor qiladi.

16.14. Kreditorlarning talablar qo'yishi uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin tugatuvchi oraliq tugatish balansini tuzadi, mazkur balansda tugatilayotgan Jamiyat mol-mulkining tarkibi, kreditorlar tomonidan taqdim etilgan talablar, shuningdek ularni ko'rib chiqish natijalari haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Oraliq tugatish balansi tugatilayotgan Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

16.15. Agar tugatilayotgan Jamiyatdagi mavjud pul mablag'lari kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun yetarli bo'lmasa, tugatuvchi Jamiyatning mol-mulkini sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda kimoshdi savdosida sotishni amalga oshiradi.

16.16. Tugatilayotgan Jamiyat kreditorlariga pul summalarini to'lash tugatuvchi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida oraliq tugatish balansiga muvofiq, ushbu balans tasdiqlangan kundan boshlab amalga oshiriladi.

16.17. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar tugaganidan keyin tugatuvchi tugatish balansini tuzadi, tugatish balansi tugatilayotgan Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

16.18. Kreditorlar bilan hisob-kitoblardan keyin qolgan mol-mulki tugatuvchi tomonidan aksiyadorlar o'rtasida qonun hujjatlarida belgilangan navbat bo'yicha taqsimlanadi.

16.19. Mol-mulkni har bir navbat bo'yicha taqsimlash avvalgi navbat bo'yicha mol-mulk to'liq taqsimlab bo'linganidan keyin amalga oshiriladi.

16.20. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga tegishli yozuvni kiritgan paytdan e'tiboran Jamiyatni tugatish tamomlangan, Jamiyat esa faoliyatini tugatgan deb hisoblanadi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga tegishli yozuvlarni kiritgan paytdan e'tiboran Jamiyatni tugatish tamomlangan, Jamiyat esa faoliyatini tugatgan hisoblanadi.

Ro'yxatidan o'tkazuvchi organ Jamiyat tugatilganligi haqidagi tegishli yozuvni faqat Jamiyat qimmatli qog'ozlari chiqarilishlari davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi bekor qilinganidan keyingina kiritiladi.

16.21. Tugatuvchi noqonuniy yoki atayin noto'g'ri qilingan harakatlar (harakatsizlik) natijasida Jamiyatga keltirilgan zarar uchun javobgardir.

XVII. YAKUNIY QOIDALAR

17.1. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

17.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'limgan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

17.3. Mazkur Ustav Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtidan boshlab kuchga kiradi.

17.4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan masalalar, qonunda boshqa hollar nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Ustavga muvofiq tartibga solinadi.

**XII «O'zkkilamchiranglimetall» AJ
Bosh direktori v.v.b.**

I.G. Umarov

